

Silikon nazogastral oziqlantiruvchi naychani tiqish


Nazogastrik (NG) naycha bu – burun orqali va oshqozon ichiga o'tuvchi ingichka, yumshoq naychadir. Bu naycha farzandingizga zarur ozuqa, suyuqlik va/yoki dori-darmonlarni qabul qilishga yordam berishi mumkin. Uyda oziqlantiruvchi naychali barcha bemorlar uchun NG naychasidan foydalanish bo'yicha mashg'ulotlar o'tilishi kerak. Farzandingiz yoshroq bo'lsa, uni ushlab turishga yordam beradigan odam kerak bo'ladi.

NG Oziqlantiruvchi naychasi:

<https://youtu.be/q9AVCB6A9xQ> (faqat ingliz tilida mavjud)

Sizga zarur materiallar

- NG oziqlantiruvchi naychasi
- Bir piyola suv
- 5-10 ml shprits
- O'chmaydigan marker
- Tasmachalarga bo'lingan yopishqoq tasma va/yoki toza mato
- Doka yoki gubka
- Terini tayyorlash vositasi (zaruratga qarab)



Naychani joylashga tayyorgarlik

1. Qo'llaringizni sovun va suv bilan yuving.
2. Barcha materiallarni to'plang.
3. Burunning qaysi tomonidan foydalanishni tanlang. Agar bu birinchi marta tiqish bo'lsa, havo oqimi yaxshiroq bo'lgan tomondan foydalaning. Keyin burunning ikkala tomonini o'zaro almashtiring.
4. Yonoq va burun atrofidagi terini artib tozalang hamda to'liq quriting.
5. Terini tayyorlash vositasini zaruratga ko'ra yonoqqa surting.
6. Qo'shimcha yupqa duoderm kabi terini himoyalovchi mato surting
7. Bemorni joylashtiring: chaqaloqni ushlab turish, chaqaloq aravachasiga mahkamlash yoki yo'rgaklash mumkin. Kattaroq bola yoki katta yoshli odam iloji boricha yotishi yoki o'tirishi mumkin

Naychani tiqish

8. Ayrim NG oziqlantiruvchi naychalari NG-naychasida joylashgan va o'rnatishda yordam beruvchi ingichka simdan iborat stilet bilan jihozlangan. Agar naychangizda stilet bo'lsa:
 - Naychani o'rnatishdan oldin uning erkin harakatlanishini tekshirish uchun stiletni biroz orqaga torting. Keyin stiletni joyiga qo'ying.
9. Oziqlantiruvchi naychani uchida ikkita teshik bo'lsa, stiletsiz teshikning qopqog'ini yoping.
10. Burun uchidan yuzning naycha qo'yilgan tomonidagi quloq old tomonigacha masofani o'lchang. Keyin quloq old tomonidan qovurg'alar birlashadigan to'sh suyagining oxirigacha o'lchang. Keyin to'sh suyagining oxiridan to'sh suyagi va kindik orasidagi masofani yarmigacha o'lchang. Bu nuqta sizning uzunligingizdir. Bu nuqtani o'chmaydigan marker bilan belgilang.
11. Oziqlantiruvchi naychani uchini silliq bo'ladigan qilib suvga botiring.
 - Gel yoki vazelin ishlatmang, chunki bu moddalar o'pkaga tushishi va/yoki oziqlantiruvchi naychaga tiqilib qolishi xavfi mavjud.
12. Belgilangan nuqtaga yetguncha naychani burun teshigi orqali tiqing.
 - Naychani burunning asosiga qaratib, tikka yuqoriga surishdan qochgan holda, muloyimlik bilan tiqing. Qarshilikka duch kelsangiz, biroz orqaga qaytib, harakatni quloqqa yo'naltirishga intiling.
 - Oziqlantiruvchi naycha burun va tomoq egri chizig'ida bo'lsa, bolaning boshini bir oz oldinga eging. Bo'yingizni orqaga burishdan saqlaning, bu nafas olish yo'llarini ochadi.
 - Kattaroq bolalar bir qultum suv ichishi mumkin; chaqaloqlar, agar xohlasa, so'rg'ich so'rishi mumkin.
 - Farzandingiz naychani yutayotganda uni pastga tushirishda davom eting.
 - **Shikastlanmaslik uchun NG naychasini o'rnatishda hech qachon qarshilikka teskari bosmang.**
 - Naychani o'rnatish paytida o'qchish odatiy holdir.
13. Biroq agar farzandingiz bo'g'lsa, yo'talayotgan yoki nafas olishda qiynalayotgan bo'lsa, **darhol** naychani chiqarib oling va qayta urinishdan oldin farzandingizga dam bering.
14. Oziqlantiruvchi naychani joyiga qo'ygach, uni barmoqlaringiz orasiga, burun teshigiga mahkamlang va stiletni chiqarib oling.
 - Stiletni plastik sumkada saqlang. NG naychasini kiritganingizda stiletni qayta tiqishingiz kerak bo'ladi.

15. Shpirtsni oziqlantirish teshigiga ulang va 1-2 ml oshqozon kontenti olish uchun orqaga torting.

- Oshqozon kontentiini olganingizda, shpirtsni chiqarib oling, oshqozon kontentiini tashlab yuboring va oziqlantiruvchi naychani joyiga tasma bilan yopishtiring.
- Oshqozon kontentini chiqarib tashlolmasangiz, shpirtsni chiqaring, teshikni qopqoq bilan yoping va farzandingizni 10 daqiqaga chap tomoni bilan yotqizing. 10 daqiqadan keyin shpirtsni ulang va oshqozon kontentini tortib olish uchun orqaga torting.
- Agar baribir oshqozon kontentini ololmasangiz, oziqlantiruvchi naychani chiqaring, stiletni oziqlantiruvchi naychaga takroran tiqing, oziqlantiruvchi naychani qayta o'lchang va zaruratga qarab, belgini o'zgartiring. Keyin oziqlantiruvchi naychani tiqing va oshqozon kontentini yana tekshiring.
- Agar baribir oshqozon kontentini orqaga tortolmasangiz, sog'liqni saqlash bo'yicha provayderingizga telefon qiling.

16. Oziqlantiruvchi naycha oshqozonda ekaniga ishonch hosil qilmaguningizcha, ovqatlantirishni boshlamang yoki dori bermang.

Oziqlantiruvchi naychani chiqarish

1. Naychani ushlab turgan tasmani olib tashlang.
2. Oziqlantiruvchi naychani qisib, tashqariga torting.
 - Naychani qisish uni olib tashlash paytida naychadan biror narsa chiqib ketishiga yo'l qo'ymaydi.
3. Oziqlantiruvchi naychani shpirts bilan iliq suvda yuving va teshiklar yoki yirtiqlar bor-yo'qligini tekshiring.

Yodda saqlash uchun

- Oziqlantiruvchi naycha bilan ishlashdan oldin va keyin har doim qo'lingizni yuving.
- Oziqlantiruvchi naycha tiqilgandan keyin har doim undan stiletni chiqarib oling.
- Hech qachon oziqlantiruvchi naycha farzandingiz ichidaligida unga stiletni qaytarib tiqmang.
- Har doim stiletni oziqlantiruvchi naychada saqlang. Naychani joyiga qo'yish uchun stilet kerak bo'ladi.
- Oziqlantiruvchi naychadan takroran foydalanmang, agar:
 - Naychada biror teshik yoki yirtiq bo'lsa
 - Naycha cho'zilgan bo'lsa va stilet naychaga ortiq sig'masa.
 - Naychani almashtirish kerakligi sababli (oyda bir marta yoki tavsiya qilingan muddatda almashtiring)
 - Naychani chayish yoki aralashma o'tishi qiyinlashsa

Lynne O'Donnell, RN tomonidan yangilandi